

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53406-3.20.04

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

"8" iyul 2003 y.

**MAHALLIY BYuDJETNI
ShAKLLANTIRISH VA BOSHQARISH
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340600 - "Moliya"
bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Jamolov X.,
ass. Iminoxunov A.

Taqrizchilar: prof. Malikov T.,
dots. Alieva L.

"Biznes va boshqaruv" sohasining "Moliya" yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan ushbu dasturdan ko'zlangan asosiy maqsad mahalliy byudjetlarni shakllantirish va ularni boshqarish yuzasidan iqtisodiy oliy o'quv yurtlari talabalarida etarlicha ko'nikmalarni paydo qilishdan iborat.

Bugungi kunda mahalliy hokimiyat organlarining iqtisodiy jarayonlarni boshqarishdagi roli ortib bormoqda va ularning xarajatlarini samarali boshqarishni tashkil etish uchun yuqori malakali mutaxassislariga ehtiyoj sezilmoqda. Mazkur dasturda aks ettirilgan masalalar bo'lajak mutaxassislarning ushbu yo'nalish bo'yicha bilim saviyasini oshirishga ko'maklashadi.

Данная программа включает в себя изучение особенностей и закономерностей развития местных бюджетов в современных условиях и предназначена для студентов направления бакалавриата "Финансы" сферы "Бизнес и управление". В программе освещены сущность, функции и задачи, звенья, система доходов и расходов местных бюджетов Республики Узбекистан, которые отражают суть вопросов лекционных, практических (семинарских) занятий и тем самообразования. В программе приведена перечень литератур для изучения предмета на узбекском, русском и английском языках. К ней приложен список сайтов интернета и компьютерных учебных программ по соответствующим темам курса.

The main goal of this program is to provide necessary skills about formation and management of municipal finance for students of high economic schools.

Today the role of municipals is improving and its need high high qualified experts to effectively managing of expenditure. Therefore the questions given here help to specialists.

In Transaction period Budget System play a great role and portion of municipal budget is rising. These changes taking out in our country require good experts in municipal Budget sphere. In subjects of the given rate the theoretical questions concerning municipal Budget.

The rate of given lectures stipulated by the program will help the students to master the basic theoretical aspects necessary for the decision of problems connected with municipal Finance.

Dastur Toshkent moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

Fanni o'qitishning maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

"Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish" fanini o'qitishning maqsadi - kelgusida yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislar bo'lib etishadigan talabalarga O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimining yangi modeli shakllanishi sharoitida mahalliy byudjetlar taraqqiyoti haqida nazariy bilimlar berish, ularda davlatning islohotlar chuqurlashuvi davridagi moliya va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, fan o'z predmetini mukammal o'rgatish uchun quyidagilarni o'rganish vazifalarini qo'yadi:

- mahalliy byudjetlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini;
- byudjet qurilishi va byudjet tizimini;
- byudjet tizimini boshqarishning tashkiliy asoslarini;
- mahalliy byudjetlar daromadlari tizimi va uning manbalarini;
- mahalliy byudjetlar xarajatlari tarkibini;
- mahalliy byudjetlarda byudjet jarayoni va byudjet istiqbolini belgilash asoslarini;
- mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlari tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uning omillari hamda yullarini;
- iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida davlat moliyaviy va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini va h.k.

"Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish" fani "Moliya", "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Iqtisodiy nazariya", "Davlat moliyasi", "Chet mamlakatlar moliyasi" kabi fanlardan olingan nazariy asoslarga tayanadi.

Shu bilan birga "Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish" fani qator maxsus fanlar, jumladan, "Davlat byudjeti", "Nobyudjet fondlar", "Chet mamlakatlar

moliyasi", "Korxonalar moliyasi", "Soliq va solikka tortish", "Sug'urta asoslari", "Qimmatli qog'ozlar bozori" kabi fanlarni ham o'zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi davlat ta'lim standartiga (DTSga) muvofiq ravishda o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalariga talablar

Ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar tegishli bilimga, uquvga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Talabalar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda byudjet-moliyaviy qonunchilik sohasidagi, hududlar miqyosidagi kundalik moliyaviy o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim. Mazkur fanning asosiy g'oyalarini to'la va muvaffaqiyatli o'rganish uchun talabalar byudjet amaliyotida mavjud iqtisodiy tahlil, mahalliy byudjetlarni rejalashtirish usullaridan foydalana bilishlari lozim.

"Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish" fanidan olingan bilimlar talabalarni oliy o'quv yurtini tamomlagandan so'ng, byudjet amaliyotiga oid kundalik faoliyatda uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda hamda mahalliy moliya muammolariga doir adabiyotlarni o'rganib malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga talablar

Ishchi o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha talabalar tegishli mavzular bo'yicha konspektlar oladi, referat va mustaqil ishlar tayyorlaydi hamda amaliyot o'qituvchisi nazoratida ular yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tadi. Amaliy mashg'ulotlar mavzularida kursiv bilan ko'rsatilgan savollarni bo'yicha talabalar mustaqil ravishda to'liq o'zlashtirishlari lozim.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi (foizlarda) bo'yicha tavsiyalar

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 162, shu jumladan 54 - ma'ruza, 54 - amaliy mashg'ulotlar va 54 - mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan. Ushbu fan bo'yicha darslarni tashkil etish VII o'quv semestriga mo'ljallangan.

Talabalar bilimini baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Ushbu fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasi reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy baholashlar davomida yig'ilgan ballar asosida aniqlanadi.

Fanni o'qitishning bir semestrda ikki marotaba joriy (seminar mashg'ulotlarida), ikki marotaba oraliq (ma'ruza mashg'ulotlarida) va bir marotaba yakuniy (yozma ish baholash usulida) amalga oshiriladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

Ushbu fanni o'qitish jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanishning asoslarini quyidagilar isbotlaydi:

- tegishli o'quv maqsadlarini ishlab chiqish texnologiyasining mavjudligi;
- to'la o'zlashtirish texnologiyasi ko'zda tutilganligi;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga o'tkazish texnologiyasi mavjudligi;
- test topshiriqlarining invariantligi metodologiyasi va nazariyasidan foydalanilishi;
- muammoli usul va haqiqatni imitatsion modellashtirish asoslaridan foydalanilishi;
- tayanch iboralarga asoslangan yozma ish orqali nazorat ishlarini o'tkazish tizimidan foydalanilishi.

Bu fanni o'qitishda moliyaga tegishli qonunlar, hukumat qarorlari, moliyaviy hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimi ("Moliya" AIJ) dasturi, nizomlar va moliyaviy loyihalarni baholashning YuNIDO va "Projest expert" kompyuter dasturlaridan, yangi kompyuter texnologiyalardan, tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan ham foydalanish mumkin.

Ishchi dasturni tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Mazkur fan "Moliya", "Kasb ta'limi" bakalavr ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislariga tegishli tarzda 7-semestrda o'tilishi mo'ljallangan.

Ushbu fan bo'yicha ishchi dasturlari tuzishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- Fan bo'yicha bakalavriat bosqichining tegishli yo'nalishlari uchun tasdiqlangan o'quv rejasiga muvofiq ajratilgan soatlar hisobga olinishi zarur;
- Har bir mavzuga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda tegishli moliyaviy qonunchilik asosidagi yangi talab va o'zgarishlar talabalar e'tiborini etadigan tarzda berilishi kerak;
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular va savollar ajratilib ko'rsatilishi zarur;

- Ishchi dasturda o'qitishning ilg'or texnologiyalari, dasturiy ta'minot imkoniyatlari xamda talabalar bilimi darajasini nazorat qilishning reyting tizimi talablaridan kelib chiquvchi vazifalar xam yoritilishi lozim.

2. FAN DASTURI

"Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish" fani bo'yicha o'qiladigan ma'ruza mavzulari

Fanning predmeti va mazmuni

"Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish" fanining predmeti, mazmuni, vazifalari va boshqa fanlar bilan aloqadorligi. *Mahalliy byudjetlarning davlat moliya siyosatini ijro etishdagi rolini oshirish yo'nalishlari.*

Mahalliy byudjetlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Mahalliy byudjetlarning iqtisodiy mohiyati, umumiy moliya munosabatlari tarkibidagi o'rni va ahamiyati. *Mahalliy byudjetlarning moliya tizimi bo'g'inlari bilan munosabati.* Mahalliy byudjetlarning taqsimlash va nazorat funktsiyalari. Mahalliy byudjetlar orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi.

Mahalliy byudjetlarning rivojlanish strategiyasi va byudjet siyosati

Mahalliy byudjetlar - davlat iqtisodiy siyosati quolidir. Byudjet siyosatining strategiyasi va taktikasi. Mamlakat moliyasini sog'lomlashtirishda mahalliy byudjetlarning ahamiyati. *Mustaqil O'zbekistonning iqtisodiyotini, ijtimoiy va madaniy soha hamda tarmoqlarini rivojlantirishda mahalliy byudjetlarning ahamiyati va o'rni.*

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlari va ularni yaxshilash masalalari

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlari tushunchasi. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlariga ta'sir etuvchi omillar. *Moliyaviy imkoniyatlarni oshirishning ahamiyati va manbalari. Mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlarini baholash usullari.* Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida mahalliy byudjetlarni barqaror daromad bazasi bilan ta'minlashni mustahkamlash va uning echimlari.

Mahalliy byudjetlar tizimi va uning bo'g'inlari

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari byudjeti, ularning byudjet tizimidagi o'rni va turlari. Mahalliy byudjetlar tizimi va uning bo'g'inlariga tavsif. Mahalliy byudjetlar

turli bo'g'inlari faoliyatining tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy asoslari. *Mahalliy byudjetlar tizimi taraqqiyotining qonuniyatlari va hozirgi zamon muammolari.*

Mahalliy byudjetlarning huquq va majburiyatlari

Mahalliy byudjetlar huquq va majburiyatlarining mohiyati hamda tavsifi. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida davlat byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarida mahalliy byudjetlar huquq va majburiyatlarining ortishi. Mahalliy byudjetlarning huquqlari. Mahalliy byudjetlarning majburiyatlari. *Mahalliy byudjetlar faoliyatida byudjet qonunchiligi va byudjet amaliyotida rivojlangan davlatlar ijobiy tajribalarini o'zlashtirishining ahamiyati.*

Mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlari

Biriktirilgan daromadlarning mohiyati va tarkibi. Mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlarining jami daromadlar shakllanishidagi salmog'i. Biriktirilgan daromadlarning turkumlanishi, ularni hisoblash va byudjetga o'tkazilish tartibi.

Mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlari

Mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlarining mohiyati va tarkibi. Mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlarining jami daromadlar shakllanishidagi salmog'i. Tartibga soluvchi daromadlarning turkumlanishi, ularni hisoblash va byudjetga o'tkazilish tartibi. Biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlar o'rtasidagi nisbat.

Mahalliy byudjetlar xarajatlari tizimi

Mahalliy byudjetlar xarajatlari, ularning tarkibi va turlari. Mahalliy byudjetlar xarajatlarining turkumlanishi. *Davlat byudjeti xarajatlari tizimida mahalliy byudjetlar ulushi va dinamikasi.* Mahalliy byudjetlar xarajatlarining ular majburiyatlariga mos tarzda o'zgarishi tahlili. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini operativ va strategik boshqarish asoslari. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini boshqarish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15 yanvar 2002 yildagi "Aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofaza etishning 2002-2003 yillarga mo'ljallangan Davlat Dasturi haqida"gi 33-sonli Qarorining ahamiyati. *Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarishning hozirgi bosqichida mahalliy byudjetlar xarajatlarini taqsimlash siyosatining ahamiyati va vazifalari.* Mahalliy byudjetlar xarajatlarining ijrosi yuzasidan moliyaviy nazorat zaruriyati vazifalari va usullari.

Mahalliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirish va ijro etishni ta'minlash

Mahalliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirish zaruriyati vazifalari va usullari. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirishning hozirgi zamon amaliyoti tahlili. *Mahalliy byudjetlar xarajatlari tarkibi va guruhlanishidagi o'zgarishlar tahlili.* Mahalliy byudjetlar xarajatlarining samarali ijrosi va uni ta'minlovchi omillar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va Moliya Vazirligining buyruqlari hamda yo'riqnomalarida xarajatlarni rejalashtirish me'yoriy usulini takomillashtirishning ahamiyati va vazifalarining yoritilishi.

Mahalliy byudjetlar istiqbolini rejalashtirish asoslari

Mahalliy byudjetlar istiqbolini rejalashtirishning ahamiyati, mazmuni va vazifalari. Mahalliy byudjetlar istiqbolini rejalashtirish - mamlakat taraqqiyotini iqtisodiy, ijtimoiy rejalashtirishning tarkibiy qismi sifatida. *Mahalliy byudjetlar istiqbolini rejalashtirish usullari.*

Mahalliy byudjetlarda byudjet jarayonini tashkil etishning mohiyati va bosqichlari

Byudjet jarayoni tushunchasi. Mahalliy byudjetlarni rejalashtirish bosqichlari: byudjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash. Mahalliy byudjetlarda byudjet ijrosi va uning natijalari yuzasidan hisobotlarni tayyorlash, ko'rib chiqish va tasdiqlash. *Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida mahalliy byudjetlarda byudjet jarayonini tashkil etish va boshqarish tizimining takomillashuvi.* Hududiy iqtisodiyot muammolari va mahalliy byudjetlarning samarali ijrosini ta'minlash muammolari.

Hududiy iqtisodiyot va mahalliy byudjetlarni boshqarish tizimini takomillashtirish masalalari

Hududiy iqtisodiyotning hozirgi zamon muammolari. Hududiy iqtisodiyot muammolarining keskinlashuvi va ularning mahalliy byudjetlarni boshqarish tizimi bilan bog'liqligi. Davlatning xududiy iqtisodiyotni boshqarish va byudjet siyosatining yaxlitligini ta'minlash yo'nalishlari. *Mahalliy byudjetlarni boshqarishning hozirgi zamon amaliyoti tahlili. Mahalliy byudjetlarni boshqarishda xududiy iqtisodiyot muammolaridan kelib chiqqan holda tabaqalashgan yondoshuv zaruriyati, mezonlari va moliyaviy usullari.*

Mahalliy byudjetlarning samarali ijrosini ta'minlash yuzasidan moliyaviy nazorat

Mahalliy byudjetlar ijrosining mohiyati va ahamiyati. Mahalliy byudjetlar daromadlarining ijrosi va uning omillari. *Mahalliy byudjetlar samarali ijrosini ta'minlashning ahamiyati va vositalari.* Mahalliy byudjetlar ijrosi yuzasidan moliyaviy nazorat zaruriyati, vazifalari, shakllari va usullari. Moliyaviy-byudjet qonunchiligi

takomillashuvining hozirgi bosqichida mahalliy byudjetlarning samarali ijrosini ta'minlash yuzasidan moliyaviy nazorat usullarini takomillashtirish masalalari.

3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI, LABORATORIYA ISHLARI, CHIZMA-HISOB ISHLARI, KURS ISH(LOYIHA)LARI MAVZULARINING NAMUNAVIY RO'YXATI

Amaliy (seminar) mashg'ulotlari mavzulari ro'yxati

Fanning predmeti va mazmuni

Fanning predmeti, mazmuni, vazifalari*, boshqa fanlar bilan aloqadorligi*. Fanning tarkibiy tuzilishi va asosiy g'oyalari.

Mahalliy byudjetning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Mahalliy byudjetning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati*. Mahalliy byudjetning taqsimlash va nazorat funksiyalar. Mahalliy byudjetning daromad va xarajatlari*.

Mahalliy byudjetlarning rivojlanish strategiyasi va byudjet siyosati

Mahalliy byudjetlar - davlat iqtisodiy siyosati quroli. Mamlakat moliyasini sog'lomlashtirishda mahalliy byudjetlarning ahamiyati*.Mustaqil O'zbekiston iqtisodiyotini, ijtimoiy-madaniy soha va tarmoqlarini, tashqi munosabatlarini amalga oshirishda mahalliy byudjetlarning ahamiyati va o'rni.

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlari va ularni yaxshilash masalalari

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlariga ta'sir etuvchi omillar*. Mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlarini baholash usullari. Mahalliy byudjetlarni barqaror daromad bazasi bilan ta'minlash.

Mahalliy byudjetlar tizimi va uning bo'g'inlari

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari byudjeti, ularning byudjet tizimidagi o'rni va turlari*. Mahalliy byudjetlar tizimi va uning bo'g'inlariga tavsif*. Mahalliy byudjetlar turli bo'g'inlari faoliyatining tashkiliy iqtisodiy, huquqiy asoslari. Mahalliy byudjetlar tizimi taraqqiyotining qonuniyatlari va hozirgi zamon muammolari.

Mahalliy byudjetlarning huquq va majburiyatlari

Mahalliy byudjetlar huquq va majburiyatlarining mohiyati va tavsifi*. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida davlat byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarida mahalliy byudjetlar huquq va majburiyatlarining ortishi. Mahalliy byudjetlarning huquqlari. Mahalliy byudjetlarning majburiyatlari*. Mahalliy byudjetlar faoliyatida

byudjet qonunchiligi va byudjet amaliyotidagi taraqqiy etgan davlatlar ijobiy tajribalari o'zlashtirilishining ahamiyati.

Mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlari

Biriktirilgan daromadlarning mohiyati va tarkibi*. Mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlarining jami daromadlar shakllanishidagi ulushi. Biriktirilgan daromadlarning turkumlanishi, ularni hisoblash va byudjetga o'tkazilish tartibi*.

Mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlari

Mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlarining mohiyati va tarkibi*. Mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlarining jami daromadlar shakllanishidagi ulushi. Tartibga soluvchi daromadlarning turkumlanishi, ularni hisoblash va byudjetga o'tkazilish tartibi. Biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlar o'rtasidagi nisbat*.

Mahalliy byudjetlar xarajatlari tizimi

Mahalliy byudjetlar xarajatlari, ularning tarkibi va turlari*. Mahalliy byudjetlar xarajatlarining turkumlashtirilishi. Davlat byudjeti xarajatlari tizimida mahalliy byudjetlar ulushi va dinamikasi. Mahalliy byudjetlar xarajatlarining ular majburiyatlariga mos tarzda o'zgarishining tahlili. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini operativ va strategik boshqarish asoslari. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini boshqarish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari*. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15 yanvar 2002 yildagi "Aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofaza etishning 2002-2003 yillarga mo'ljallangan Davlat Dasturi haqida"gi 33-sonli qarorining ahamiyati. Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarishning hozirgi bosqichida mahalliy byudjetlar xarajatlarini taqsimlash siyosatini ahamiyati va vazifalari. Mahalliy byudjetlar xarajatlarining ijrosi yuzasidan moliyaviy nazoratning zarurligi, vazifalari va usullari*.

Mahalliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirish va ijro etishni ta'minlash

Mahalliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirishning zarurligi, vazifalari va usullari*. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirish hozirgi zamon amaliyotining tahlili. Mahalliy byudjetlar xarajatlari tarkibi va guruhlanishidagi o'zgarishlarning tahlili*. Mahalliy byudjetlar xarajatlarining samarali ijrosi va uni ta'minlovchi omillar*. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va Moliya Vazirligining buyruqlari hamda yo'riqnomalarida xarajatlarni rejalashtirish me'yoriy usulini takomillashtirishning ahamiyati va vazifalarining yoritilishi.

Mahalliy byudjetlar istiqbolini rejalashtirish asoslari

Mahalliy byudjetlar istiqbolini rejalashtirishning ahamiyati, mazmuni va vazifalari*. Mahalliy byudjetlar istiqbolini rejalashtirish - mamlakat taraqqiyotini iqtisodiy, ijtimoiy rejalashtirishning tarkibiy qismi sifatida. Mahalliy byudjetlar istiqbolini rejalashtirish usullari*.

Mahalliy byudjetlarda byudjet jarayonini tashkil etishning mohiyati va bosqichlari

Byudjet jarayoni tushunchasi. Mahalliy byudjetlarni rejalashtirish bosqichlari: byudjet loyahasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash. Mahalliy byudjetlarda byudjet ijrosi va uning natijalari yuzasidan hisobotlarni tayyorlash, ko'rib chiqish va tasdiqlash*. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida mahalliy byudjetlarda byudjet jarayonini tashkil etish va boshqarish tizimining takomillashuvi. Xududiy iqtisodiyot muammolari va mahalliy byudjetlar samarali ijrosini ta'minlash muammolari*.

Hududiy iqtisodiyot va mahalliy byudjetlarni boshqarish tizimini mukammallashtirish masalalari

Hududiy iqtisodiyot hozirgi zamon muammolarining ahamiyati va omillari. Xududiy iqtisodiyot muammolarining keskinlashuvi va ularning mahalliy byudjetlarni boshqarish tizimi bilan bog'liqligi*. Davlatning xududiy iqtisodiyotni boshqarish va byudjet siyosatining yaxlitligini ta'minlash yo'nalishlari. Mahalliy byudjetlarni boshqarish hozirgi zamon amaliyotining tahlili. Mahalliy byudjetlarni boshqarishda xududiy iqtisodiyot muammolaridan kelib chiqib tabaqalangan holda yondoshuvning zarurligi, mezonlari va moliyaviy usullari*.

Mahalliy byudjetlar samarali ijrosini ta'minlash yuzasidan moliyaviy nazorat

Mahalliy byudjetlar ijrosining mohiyati va ahamiyati*. Mahalliy byudjetlar daromadlarining ijrosi va uning omillari. Mahalliy byudjetlar xarajatlarining ijrosi va uning omillari. Mahalliy byudjetlar samarali ijrosini ta'minlashning ahamiyati va vositalari*. Mahalliy byudjetlar ijrosi yuzasidan moliyaviy nazoratning zarurligi, vazifalari, shakllari va usullari*. Moliyaviy-byudjet qonunchiligi takomillashuvining hozirgi bosqichida mahalliy byudjetlar samarali ijrosini ta'minlash yuzasidan moliyaviy nazoratning ilg'or usullarini rivojlantirish masalalari.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI RO'YXATI

Mavzularni chuqur o'rganishda ko'rgazmali vositalar, slaydlardan, kompyuter texnikasidan foydalanish ko'zda tutilgan. Ayrim aniq masalalarni o'rganishda shaxsiy kompyuterlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tahlillar, prognozli ko'rsatkichlarni hisoblash, diagrammalarni, personal kompyuterda elektron tablitsalarda excel 7,0 paketi bilan ishlash asoslarini o'rganib o'tqazish.

Personal kompyuterda "pravo" sistemasi bilan ishlashni o'rganish va o'qish jarayonida u bilan foydalanish.

Case Studies: O'zbekiston Respublikasida xududlar moliyasi taxliliga doir o'quv misollari (rus tilida). Moliya Vazirligi xomiyligida "Byudjet-soliq siyosati" Markazi tomonidan tuzilgan.

Masofaviy o'qitish soatlari: www.google.ru (Rossiya Federatsiyasi menejment va bozor akademiyasi "Moliya menejmenti ilmiy tadqiqot instituti" dasturlari (mualliflar rahbari akad. E.Stoyanova)); www.yandex.ru; www.rambler.ru; www.worldbank.org.ru; www.imf.org.

Kompakt disk: Sales information. International Monetary Fund – Publication Services; Exchange Rate Analysis with a Case Study on Poland.

Statistik to'plamlar:

1. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisod va statistika vazirligi. T.: 2000, 2001, 2002 y.
2. O'zbekistonning iqtisodiy yo'nalishlari. TESIS. 2000, 2001, 2002 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining Davlat byudjetining ijrosi yuzasidan yillik hisobotlari. T.: 2000, 2001, 2002 y.

5. O'ZLASHTIRISH NAZORATI

Talabalarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi; joriy baholash, oraliq baholash va yakuniy baholash. Joriy va oraliq baholash turiga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70%, yakuniy baholashga esa 30% miqdorda belgilanadi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi holatlarda qo'yiladi:

- talabning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirish;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozish;
- ilmiy tezislarni tayyorlash;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarish;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlash.

Tayanch tushunchalariga asoslangan "Yozma ish" usulini o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tatbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plagan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 foiz "a'lo";
- 71 - 85 foiz "yaxshi";
- 55 - 70 foiz "qoniqarli";
- 55 foizdan kam "qoniqarsiz".

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi". O'zbekiston Respublikasining № 396-1, 24.04.1997 y. Qonuni bilan tasdiqlangan.
2. "O'zbekiston Respublikasining moliyaviy qonunlari", 2000 y. 1-12 sonlari, 2001 y. 1-12 sonlari va ilovalari, va 2002 y. 1-6 sonlari va ilovalari. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Moliya va narxlar ilmiy-tadqiqot instituti. T.: 2000-2002.
3. Akramov E.A., Tairov A.E. O'zbekiston Respublikaning iqtisodiy islohotlari. - M.: TOO "Lyuks-art", 1998.
4. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. Pod red. prof. M.V. Romanovskogo i prof. O. V. Vrublevskoy. - M.: Yurayt, 2000.
5. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii: Uch. pod red. M.V. Romanovskogo, O.V. Vrublevskoy – 2-izd. - M.: Yurayt, 2000.
6. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. Ucheb. pod red. G.B.Polyaka. – 2-izd. - M.: YuNITI, 2001.
7. Byudjetniy federalizm i mejbyudjetnie otnosheniya: problemi i perspektivi razvitiya. – 2-izd. –S-Pb.: Kodeks INFO, 2001.
8. Verxolaz M.A. Vliyanie stepeni ispolzovaniya ekonomicheskogo potentsiala na sostoyanie mestnix byudjetov. – 2-izd. - Belgrad: Iskra, 2000.

9. Dmitriev M. Byudjetnaya politika v sovremennoy Rossii. – 2-izd. - M.: Moskovskiy Tsentr Karnegi, 2001.
10. Juravleva L.V. Byudjetnaya politika kak metod gosudarstvennogo regulirovaniya. – 2-izd. - M.: Delo LTD, 2001.
11. Zaripova I.R., Xafizova V.R. Istoriya razvitiya i sovremennoe sostoyanie mejbyudjetnix otnosheniy v Rossii. – 2-izd. –Ufa: GP "Print", 2001.
12. Drobozina L.A. Finansi. Uch. dlya VUZov. - M.: Banki i birji, 2000.
13. Dj.K. Van Xorn. Osnovi upravleniya finansami. Pod red. prof. Sokolova Ya.V. - M.: Finansi i statistika, 1996.
14. Letkeman I. Sovershenstvovanie mexanizma gosudarstvennogo regulirovaniya byudjetnoy sistemi // Rinok, dengi i kredit, 2001, № 7.
15. Finansi: Uch. dlya vuzov. Pod red. M.V. Romanovskogo, O.V. Vrublevskoy, B.M. Sabanti. - M.: Yurayt, 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Belyaev Yu. A. Rol finansov v stabilizatsii Rossiyskoy ekonomiki // "Finansi", 1997, № 1.
2. Vajneyshie zadachi organov finansovoy sistemi - finansi pri perexode k rinku // "Finansi", 1997, № 6.
3. Gerasimenko G.P., Markaryan E.A. Finansoviy analiz. Uchebnoe posobie 2-izd., - M.: PRIOR, 2001.
4. Larionov I.K. O nekotorig voprosax sotsialno-ekonomicheskoy strategii i finansovoy politiki // "Finansi", 1997, № 6.
5. Lyovin A.P. Nalogovo-byudjetniy potentsial regionov Rossii. Problemi i mneniya / "Nalogoviy vestnik", GNS RF, aprel, 1997.
6. Petrov Yu. Ozdorovlenie finansovoy sistemi i normativnie metodi gosudarstvennogo regulirovaniya ekonomiki // "Rossiyskiy ekonomicheskij jurnal", 1997, № 3.
7. Purtov V. A. Byudjet i nalogovaya slujba // "Finansi", 1997, № 1.
8. Sunik B. V. Sfera kulturi: mestnie byudjeti i finansirovanie // "Finansi", 1997, № 8.
9. Sumarokov V.N. Gosudarstvennie finansi v sisteme makroekonomicheskogo regulirovaniya, 2-izd., - M.: Finansi i statistika, 2001.
10. Boyd J. Inflation. "Growth and Control Banks Theory and Evidence", 1996. Policy Research Working Paper 1575. The World Bank. Washington. D. C.
11. ABED transition Report 998. Financial sector in transition. European Bank for reconstruction and Development. London 1998.
12. Hermes N. Lesnik R. Financial System Development in Transition Economies. Journal of Banking and Finance. Vol. 24. pp. 507-524.

13. Moyer C. Financial System. Corporate Finance and Economic Development, in RA Hubbard Asymmetric information. Corporate Finance and investment. A National Bureau of Economic Research. 1990 Project Report, University of Chicago Press. Chicago. PP. 307-322.